



## YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI QOIDALARI

**Bozorov Barkamol Zokirjonovich**

*Namangan viloyat Yangiyo'rg'on tuman 2- son kasb hunar maktabi*

*maxsus fan yetakchi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda mamlakatda yo'l harakati xavfsizligi sohasida mavjud muammolarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga muvofiq yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash, avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, yo'l harakati qulayligi va xavfsizligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga piyodalarning ham yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi talab etiladi. Ushbu maqolada piyoda(o'quvchi)larning to'g'ri harakatlanishi va zarur hollarda boshqalarga yordam berishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yo'l harakati xavfsizligi, piyoda, ko'cha, yo'l, mashina, transport, svetofor, jamoat, avtobus, tramvay, trolleybus, avtomobil, jarohat, tez yordam.

Ko'chaga chiqqan har bir piyoda bevosita yo'l harakati ishtirokchisiga aylanadi. Shuning uchun atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan e'tiborli bo'lish talab etiladi. Xo'sh, ko'cha va yo'llarda o'quvchi o'zini qanday tutishi lozim? Biz quyida o'quvchilar amal qilishi uchun tavsiyalarni keltirib o'tamiz.

Piyodalarga yo'lakchalarda va maxsus piyodalar yo'lkasida yurishga ruxsat etiladi. Shunday joylar bo'lmasa, yo'l chekkasidan yoki velosiped yo'lkasidan harakatlaning. O'ng tarafdin, mashinalar yo'nalishi bo'yicha harakatlaning.

Transport vositalari oqimiga qarab, chap tomondan yurish xavfsiz hisoblanadi. Ko'cha va yo'llarda o'ynamang! Transport vositasiga osilmang!

Chang'i, g'ildirakchali konki va skeytbordda faqat to'silgan maydonlar va bog'larda uching! Yo'lning transport vositasi qatnaydigan qismiga chiqmang.

Agar, ko'cha yoki yo'lni kesib o'tish zarur bo'lsa, velosipeddan tushib oling, skeytbordni esa qo'lingizda ushlang.

Transportda yurish qoidalarini.

Transport vositasiga chiqishda: transport vositalarini bekatlarda kuting, yo'lning transport vositasi qatnaydigan qismiga chiqmang. Avtobus, trolleybus, tramvay va boshqa transport vositalariga ular batamom to'xtagandan so'ng chiqing. Jamoat transportiga chiqish orqa eshikdan, tushish esa old eshikdan amalga oshiriladi. Avtobus, trolleybus, tramvayga ular harakatlanayotgan paytda sakrab chiqmang, orqasiga osilmang, zinapoyalarida turmang.

Ko'cha va yo'llardan o'tish. Yo'lning transport vositasi qatnaydigan qismini, faqat yer osti va yer usti o'tish joylaridan va "Piyodalarning o'tish joyi" belgisi mavjud joylardan kesib o'ting. Bunda o'zingizni erkin tutib avtomototransport vositalari yo'qligiga ishonch hosil qilib, ko'cha va yo'lni tik perpendikulyar holda kesib o'ting.

Svetofor ishoralari (signallari). Svetofor yoki yo'l harakatini tartibga soluvchi yo'l noziri bor joylarda ko'chadan ishora (signal) bo'yicha o'ting. Yo'l harakatini tartibga



soluvchi yoki svetofor yo'q joylarda yo'ning qatnov qismini transportlarga xalal bermasdan, o'zingizni erkin tutib, ikkilanmasdan kesib o'ting. Ikki tomonlama harakatlanish tashkil etilgan ko'chani kesib o'tishdan oldin to'xtab, chapga qarang va transport vositasi bo'lmasa, o'tishni boshlang. Yo'ning o'rtasiga borib, o'ngga qarang. Agar yaqin masofada transport vositasi bo'lsa, xavfsiz joyda yoki ko'chani o'rtasida kutib turing, yo'l bo'shagach harakatda davom eting.

Esingizda tuting! Yo'ning transport vositasi qatnaydigan qismida yo'l-yo'l chizig'i bir tarafga ikkitadan ortiq bo'lsa va harakatdagi transportlarning signallari va chiroqlari yoqilgan holatda bo'lsa, bu tez yuradigan transport vositalari qatnaydigan yo'l hisoblanib, uni kesib o'tmang!!!

Jamoat transporti salonida: Salonga kirgan zahoti, o'rtasiga o'tib oling, chiqish maydonchalarida to'xtab turmang. Keksa odamlarga, nogiron va yosh bolali yo'lovchilarga joy bering. Jamoat transportida shovqin qilmang va baland ovozda so'zlashmang. Haydovchini ishidan chalg'itmang. Oynalardan boshingizni chiqarmang. Agar chiqish bekatingiz yaqinlashib qolgan bo'lsa, avvalroq harakat qilib chiqishga hozirlik ko'ring.

Transportdan tushishda: Transport vositasi batamom to'xtab bo'lgandan so'ng tushing. Tramvaydan tushib, transport qatnaydigan joyda turib qolmang va avval o'ng tomonga qarab yaqinlashib kelayotgan transport vositasi bo'lmasa, yo'lkadan yuring.

Avtobusning yoki trolleybusning orqasidan, tramvayning oldidan o'ting

Avtobus yo'l-transport hodisasiga uchraganda: Avtobusdan chiqib ketish uchun eshiklardan, qopqoqli shamollatish tuynuklaridan, halokatdan chiqish uchun mo'ljallangan derazalardan foydalaning. Yo'l-transport hodidasidan so'ng sarosimaga tushmasdan vaziyatni ko'zdan kechiring. U qaysi holatda ekanligini bilib, so'ng chiqishga harakat qiling.

Tramvay yoki trolleybus yo'l-transport hodisasiga uchraganda: Tramvay, trolleybus salonida sarosimaga tushmasdan vaziyatni ko'zdan kechiring. U qaysi holatda ekanligini aniqlab, tutqichga tegib ketmaslikka harakat qilib sakrab tushing, chunki vagon elektr tokida bo'lishi mumkin.

Avariya hollarida avtobusdan chiqish:

- eshik;
- shamollatish tuynuklari;
- halokatdan chiqish uchun mo'ljallangan derazalar;

Avtomobilida: Agar 12 yoshga to'lmagan bo'lsangiz, oldingi o'rindiqqa o'tirmang. Avtomobilga o'tirgach, xavfsizlik kamarini taqib oling. Avtomobilida o't o'chiruvchi moslama va dorilar turadigan quticha qayerda joylashganligini eslab qoling. Harakatlanish vaqtida ogoh bo'lib, diqqat bilan yo'lni kuzatib boring.

Temir yo'lda: Temir yo'llarda, ayniqsa, temir yo'l kesishmalarida, ogohlantirish belgilari qo'yilgan joylarda yurmang, o'ynamang. Poyezdlar tagiga kirmang, piyodalar ko'priklari va o'tish joylaridan foydalaning. Poyezd kelishi arafasida, platforma chekkasida turmang va yugurmang. Poyezd batamom to'xtamaguncha vagon oynalaridan boshingizni chiqarmang. Poyezd harakatlangan vaqtda tamburning tashqi eshiklarini ochmang va sakrab tushmang,



Tatilda: Ko'chaga chiqishdan oldin, ushbu xavfsizlik qoidalarini to'liq o'qib, o'rganing: Ota-ona ruxsatisiz bemaqsad ko'chaga chiqmang. Mahallalarda, dahalarda belgilangan joylarda o'ynang va transport harakatiga xalaqit bermang, o'z xavfsizligingizni ta'minlang. Oromgohlarga borishda ushbu xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilng. Ko'cha va yo'llarda yurish qoidalarini amalda bilmasangiz, kattalar nazoratida chiqing.

Yo'l -transport hodisalari (yth) sodir bo'lganda, birinchi tibbiy yordam

yordam berish qoidalari: Murakkab bo'lmagan me'yorlar va qoidalar o'qib, o'rganilib, uning talablari to'liq bajarilsa, shikastlanishga va o'limga olib keluvchi ko'p hodisalarning oldini olish mumkin. Ularga amal qilsangiz, o'zingiz va yaqin kishilaringizning hayotini saqlab qolishingiz mumkin. Ehtiyot choralari ko'rilishiga qaramay, baribir yo'llarda baxtsiz hodisalar bo'lib turadi. Agar siz shunday vaziyatga tushib qolsangiz yoki yordam berishga qaror qilgan bo'lsangiz, quyidagi qoidalarga amal qiling.

Quyidagi holatlarda jarohatlar hayot uchun xavfli bo'ladi:

- bosh yoki tanaga kuchli zarba berilganda;
- elektr toki ta'sirida;
- portlashda.

Bosh va umurtqa pog'onasining jarohatlari: Bosh va umurtqa pog'onasi jarohatlarining belgilari darhol yoki kechroq namoyon bo'lishi mumkin.

Jarohat belgilari:

● Es-hushi darajasining o'zgarishi; uyquchanlik, hushning noaniqligi, hushdan ketish.

● Bosh, bo'yin yoki ko'krak qafasining orqa devorida qattiq og'riq yoki bosim hissi.  
● Qo'l va oyoq, barmoqlarida sanchiq, yoki sezuvchanlikning yo'qolishi.  
● Tana biron-bir qismining harakat qobiliyatini yo'qotishi.  
● Boshda yoki umurtqa pog'onasida g'ayri tabiiy bo'rtiqsimon hosilalarning paydo bo'lishi.

- Quloqlar yoki burundan qon yohud orqa miya suyuqligi kelishi.
- Bosh, bo'yin yoki ko'krak qafasining orqa devori sohasidan qon ketishi.
- Nafas olish va chiqarishning qiyinlashishi.
- Ko'rish qobiliyatining buzilishi.
- Ko'ngil aynishi yoki qayt qilish.
- Ko'z qorachiqklarining har xil kattalikda bo'lishi.
- Tana muvozanatini yo'qotish.
- Bosh qismida, ko'zlar va quloqlar atrofida ko'kimtir hosil bo'lishi.

Birinchi yordam: Tez yordamni chaqiring. Shikastlangan odamning boshini qaysi holatda uchratgan bo'lsangiz, shu holicha ikki tomonidan qo'llaringiz bilan qimirlamasligini ta'minlang. Nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlang. Es-hush va nafas darajasini kuzating. Shikastlangan odamning me'yoriy tana haroratini ta'minlang Tashqi qon ketishini to'xtating. Agar shikastlangan odam boshida himoya qalpog'i bo'lsa, uni yechmang. Uni shikastlangan odam nafas olmayotgan holdagina yeching.

Harakat-tayanch sohasining shikastlanishi. Harakat - tayanch sohasining shikastlanishi juda keng tarqalgandir. Ular turli sharoitlarda yuz beradi: yiqilganda,



noqulay yoki kutilmagan harakatda yoki yo'l- transport hodisasida. Sinish bu suyak butunligining buzilishidir. U to'liq va chala, yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin. Nisbatan keng tarqalgan yopiq sinishda teriga shikast yetmaydi. Ochiq sinishda esa, yara jarohati yuz beradi. Chiqish - bu suyak bo'g'imdagi odatiy holatiga nisbatan siljishidir. Suyakning chiqishiga sabab bo'lgan katta kuch ta'sirida suyak sinishi va atrofdagi asab hamda qon tomirlarga jarohat yetkazishi mumkin. Suyakning chiqishini bo'g'imning ko'zga tashlanadigan deformatsiyasiga ko'ra osonlik bilan aniqlash mumkin.

Paylarning cho'zilishi va uzilishi bo'g'imga haddan tashqari kuch bilan ta'sir etganda yuz beradi. Pay cho'zilishining og'ir turlarida bo'g'imning bir ozgina harakati ham qattiq og'riq bilan kechadi. Boldir-panja va tizza bo'g'implari, barmoqlar va bilak paylarining cho'zilishi keng tarqalgandir.

Mushaklar va tog'aylarning cho'zilishi odatda og'ir buyumlarni ko'targanda, mushaklar haddan tashqari og'ir ish bajarganda yoki noqulay harakatda qo'qqisdan yuz beradi. Agar bu tarzda jarohatlarga e'tibor berilmasa, mushaklarning cho'zilishi surunkali holga aylanishi mumkin, ayniqsa, bo'yin, bel va son sohalorida.

Kasallik belgilari

- Og'riq;
- Shish;
- Odatdagi harakat vazifasini bajara olmaslik;
- Teri rangi o'zgarishi deformatsiya (shaklning o'zgarishi);
- Tashqi qon ketishi;
- Jarohat olgan paytda suyaklarda qisirlash yoki shaqillagan tovush.

Birinchi yordam:

- Tinchlik ;
- Tana jarohatlangan qismining harakatsizligini ta'minlash;
- Jarohatlangan joyga sovuq narsa qo'yish;
- Tananing jarohatlangan qismini bir oz yuqori holatda joylashtirish.

Tananing jarohatlangan qismi "shina" (taxtacha, karton, buklangan jurnallar, ko'rpa, bintlar va h.k) bilan mustahkamlanadi. Shina:

- Shikastlangan qism holatini o'zgartirmagan holda o'rnatiladi.
- Jarohat qismini ham, ana shu sohadan yuqori va quyida joylashgan bo'g'implarni ham o'z ichiga olmog'i kerak.
- Jarohatlangan sohadan yuqorida va pastda mahkamlanadi.
- O'rnatilganidan so'ng barmoqlarni tekshir, paypaslab ko'rganingda ular iliq va tirnoqlar atrofi pushti rangda bo'lishi kerak.
- Uvishishdan shikoyat bo'lsa, bog'lovni bo'shating.

Xavfsizlik haqida yana bir eslatma: Agar jamoat transportida qarovsiz yotgan buyum bo'lsa, atrofdagilardan kimning buyumi ekanligini so'rang, hech kim javob bermasa, darhol haydovchiga xabar bering. Agar qarovsiz yotgan buyum uy eshigi oldida yoki yo'lakda bo'lsa, qo'ni-qo'shnilaridan kimning buyumi ekanligini so'rang, egasi topilmasa, darhol ichki ishlar idoralariga yoki 02 ga xabar bering va topilmani ko'rgan vaqtingizni belgilab qo'ying.



Agar qarovsiz yotgan buyum maktab va maktabgacha ta'lim muassasalar binosi ichida bo'lsa, darhol ma'muriyatiga xabar qiling.

Agar qarovsiz yotgan buyum bozorlarda yoki do'konlarda bo'lsa, zudlik bilan ma'muriyatga yoki ichki ishlar bo'linmasiga xabar qiling. Maktab tevarak atrofida transport vositalarining to'xtashi 150 metr masofada ruxsat etiladi. Bundan yaqin masofada turgan transport vositasi ko'rsangiz zudlik bilan bino ma'muriyatiga yoki Ichki ishlar boshqarmasiga xabar qiling.

Xulosa qilib aytak, har birimiz ongli ravishda yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda harakatlanishimiz, qoidabuzarliklarning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishimiz, bu borada o'z fuqarolik pozitsiyamizni ko'rsatmog'imiz zarur. Islohotni o'zimizdan boshlashimiz lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.X. Azizov. Xavfsiz harakatni tashkil etish asoslari. O'quv qo'llanma. TAYI. T. 1999
2. Qodirov S.M., Nazarov K.M. "Yo'l-transport hodisalar tahlili". Toshkent, 2002
3. Afanasev L.L. i dr. "Konstruktivnaya bezopasnost avtomobilya", M., Mashinostroenie, 1983
4. Buga P.G., Щелков YU.D. "Organizatsiya peshexodnogo dvijeniya v gorodax", M., Vysshaya shkola, 1980
5. V.F. Babkov. "Dorojnye usloviya i bezopasnost dvijeniya": Uchebnik dlya vuzov, M., Transport, 1993